



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGI



Respublika
Ta'lim Markazi

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

**2022-2023-O'QUV YILIDA TA'LIM BOSHQA TILLARDA OLIB
BORILADIGAN MAKTABLARNING 9-SINF O'QUVCHILARI
UCHUN O'ZBEK TILI FANIDAN YAKUNIY DAVLAT
ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH BO'YICHA METODIK
TAVSIYA VA MATERIALLAR**



TOSHKENT – 2023

Imtihon materiallari Respublika ta'limi markazining filologiya fanlari ilmiy-metodik kengashida 2023-yil 6-martdagi 1-son qarori asosida foydalanishga tavsiya etildi.

Tuzuvchi:

U. Mamadiyev – Respublika ta'lim markazi o'zbek tili fani metodisti

Taqrizchi:

M.Yusupova –Toshkent shahar M.Ulug'bek tumanidagi PMTIDUM o'zbek tilifani o'qituvchisi.

F.Rahmatova –Toshkent shahar M.Ulug'bek tumanidagi PMTIDUM o'zbek tili fani o'qituvchisi.

Muharrir:

O. Musurmonkulova – Respublika ta'lim markazi metodisti.

O'ZBEK 9-SINF

2022-2023-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 9-sinflarida ona tili fanidan yakuniy imtihon ushbu tavsiya etilgan bilet savollari asosida o'tkaziladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari metodbirlashmalarining yig'ilish qaroriga muvofiq yakuniy imtihoni materiallariga 15%-20% gacha o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 9-sinf o'quvchilari o'zbek tilida imtihonda o'quvchilarga topshiriqlar bo'yicha tayyorlanish uchun 15-20 daqiqa vaqt beriladi.

9-sinf o'quvchilari o'zbek tilida o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olishi, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qilishi, jamoaviy hamkorlikda ishlay olishi, mavjud axborot manbalaridan foydalana olishi; ish qog'ozlari bilan ishlay olishi; badiiy va san'at asarlarini tushunib, ulardan ta'sirlana olishi; milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi; o'rganilgan grammatik bilimlarga tayangan holda o'zbek tilidagi mustaqil va yordamchi so'z turkumlari, grammatik vositalarning so'zlarga qo'shilishi bilan bog'liq imlo qoidalarini bilish va amal qilishi; so'zlarni o'zaro bog'lash vositalari, so'z birikmasi, gap va gap bo'laklari haqida ma'lumotga ega bo'lishi; o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan: tez aytish, topishmoq, maqol, masal, rivoyatlarni, o'rganilgan mavzu bo'yicha o'zbek adabiyoti namunalaridan berilgan parchalarni o'qib, so'zlab berishi, she'rlarni ifodali o'qishi va yoddan aytishi; o'zbek xalqining tarixiy, madaniy hayotiga oid lavhalarni, o'zbek allomalari, olimlari, madaniyat ravnaqiga hissa qo'shgan insonlar haqida ma'lumotga ega bo'lishi; o'zbek tilidagi muomala odobi, murojaat shakllarini, shuningdek, o'zbek tilida xabarlar, xatlar yozish qoidalarini amalda qo'llay olishi kerak bo'ladi. Shunga ko'ra, o'zbek tili fanidan imtihon materiallari davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida belgilangan materiallar asosida tayyorlandi. Imtihon biletleri 3 ta savoldan iborat.

1-savol 9-sinf darsligida berilgan nutqiy mavzular bo'yicha tuzilgan. O'quvchi matnni o'qib mazmunini so'zlab berishi hamda matn yuzasidan berilgan savollarga javob berishi, savol tuzishi lozim. O'qituvchi darslikda adabiy o'qish uchun tavsiya etilgan matnlar, she'rlar, mustaqil tanlangan matnlardan parchalarni oldindan tayyorlab qo'yadi. O'quvchi matnni o'zi bilgan qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirishi ham mumkin.

2-savol grammatik topshiriq bo'lib, bunda o'quvchi o'rganilgan leksik va grammatik materiallar asosida berilgan topshiriqni bajaradi. Ya'ni nuqtalar o'rnini kerakli qo'shimchalar, so'zlar bilan to'ldirishi; so'zlarni bo'g'inlarga ajratishi, berilgan matndagi tushirib qoldirilgan tinish belgilarini o'rinli qo'llashi, so'zlarni o'z o'rnida qo'llab gaplar hosil qilishi talab etiladi.

3-savol erkin mavzuda suhbat tarzida bo'lib, savollar o'quvchilarning kundalik hayotida zarur bo'lgan so'zlashuv mavzulari bo'yicha tuzilgan. O'quvchi berilgan savollar asosida o'z fikrini bog'lanishli bayon etadi yoki she'rni yoddan ifodali aytib, mazmunini qisqacha izohlaydi. Jumladan, Ustozingizga ta'rif bering,

qanday kitoblarni o‘qishni yaxshi ko‘rasiz?, O‘zbekistonning mashhur sportchilaridan kimlarni bilasiz?, tejamkorlik deganda nimani tushunasiz? kabi mavzular orqali o‘quvchi ustoziga, kitob o‘qishga, sportga va h.k. bo‘lgan munosabati va kelgusi rejalari haqidagi fikrlari bilan o‘rtoqlashishi mumkin.

O‘quvchilarning imtihondagi javoblari quyidagi me‘yorlar asosida baholanadi.

T/r	Baholash mezon	Ball
1	O‘quvchi tanlangan matnni o‘qisa, (she’rni ifodali yoddan aytib bersa), matn mazmunini (asosiy mazmunini qamrab olgan holda) qayta hikoya qilsa, savollarga to‘liq javob bersa, qo‘shimcha ma’lumotlar bilan boyitsa, matnni, she’rni ifodali o‘qisa va matndagi so‘zlarning lug‘atini bilsa;	5
2	Berilgan grammatik topshiriqni tushunib to‘g‘ri bajarsa va izohlab bersa, imlo qoidalariga rioya qilgan holda so‘z va so‘z shakllarini xatosiz yoza olgan bo‘lsa;	
3	Suhbat uchun tavsiya etilgan mavzu asosida ijodiy yondashib o‘zbek tilida o‘zaro erkin muloqot qila olsa, fikrini o‘zbek tilida izchil bayon eta olsa, mavzu bo‘yicha qo‘shimcha savollarga to‘liq javob bersa;	
4	O‘quvchi tanlangan matnni o‘qisa, (she’rni ifodali yoddan aytib bersa), matn mazmunini qayta hikoya qilsa, savollarga to‘liq javob bersa, matnni, she’rni o‘qishda so‘zlarning talaffuzida xatoga yo‘l qo‘ysa;	4
5	Berilgan grammatik materialni tushunib to‘g‘ri bajarsa, so‘z va so‘z shakllarini qo‘llashda xatoga yo‘l qo‘ysa;	
6	Suhbat uchun tavsiya etilgan mavzu asosida o‘zbek tilida o‘zaro muloqot qila olsa, fikrini izchil bayon eta olsa, mavzu bo‘yicha qo‘shimcha savollarga javob bersa.	
7	O‘quvchi tanlangan matnni o‘qisa, (she’rni yoddan aytib bersa), matn mazmunini tushuntirishda qiynalsa, savollarga qisman javob bersa, she’rni yoddan aytib berish bilan cheklansa;	3
8	Berilgan grammatik materialni bajarishda qiynalsa, so‘z va so‘z shakllarini qo‘llashda xatoga yo‘l qo‘ysa;	
9	Suhbat uchun tavsiya etilgan mavzu asosida o‘zbek tilida muloqotga kirisha olmasa, fikrini qisman bayon etsa, mavzu bo‘yicha qo‘shimcha savollarga javob berishda qiynalsa;	
10	O‘quvchi tanlangan matnni o‘qisa, biroq mazmunini tushuntira olmasa, she’rni yoddan aytib berishda qiynalsa, savollarga qisman javob bersa;	2
11	Berilgan grammatik materialni bajarishda xatoga yo‘l qo‘ysa, so‘z va so‘z shakllarini to‘g‘ri qo‘llay olmasa;	
12	Suhbat uchun tavsiya etilgan mavzu asosida o‘zbek tilida muloqotga kirisha olmasa, o‘z fikrini qisman bayon etsa, mavzu bo‘yicha qo‘shimcha savollargajavob bera olmasa;	
13	O‘quvchi tanlangan matnni o‘qishda xatoga yo‘l qo‘ysa, she’rni yoddan aytib bera olmasa, savollarga qisman javob bersa;	1
14	Berilgan grammatik materialni bajara olmasa;	
15	Suhbat uchun tavsiya etilgan mavzu bo‘yicha javob bermasa, qo‘shimcha savollarga qisman javob bersa;	
16	O‘quvchi biletidagi savollarga umuman javob bermasa;	0

9-sinf
O‘ZBEK TILI

1-BILET

1. “Mehmondorchilik odobi” matnini o‘qing, matn yuzasidan savollarga javob bering.
2. So‘z-gaplarga misol keltiring va izohlang
3. Yo‘l qoidalari deganda nimani tushunasiz? Yo‘l qoidalarini buzish qanday yomon oqibatlarga olib kelishi haqida gapirib bering.

2-BILET

1. “Orzular qanotida” matnini o‘qing, matn yuzasidan savollar tuzing.
2. Berilgan gaplarga “har” yoki “hech” so‘zlaridan mosini qo‘ying.
Savob ishni ... kim ... kun qilishi kerak.
Biz kimdan kam emasmiz.
..... yerni qilma orzu,yerda bor toshu tarozu.
3. O‘zbek milliy sport turlari haqida nimalarni bilasiz?

3-BILET

1. “Akademik Flora Inoyatova” matnini o‘qing, matn mazmunini so‘zlab bering.
2. Gap bo‘laklari va ularning vazifalarini misollar bilan tushuntiring
3. Sog‘lik haqidagi maqollardan 2 ta aytib bering va ma’nosini tushuntiring.

4-BILET

1. “Sharaflı burch” matnini o‘qing, matn yuzasidan savollarga javob bering.
2. Berilgan birikmalardan foydalanib, gaplar tuzing va ularni aytib bering.
Yaxshilarga intilib, kattalarga taqlid qilib, yomondan qoch, aqllidan o‘rgan, savodxon biladi, ojizlarga ko‘maklashdi, intilganga ergashish.
3. Bugungi ishni ertaga qoldirma maqolining mazmunini tushuntirib bering.

5-BILET

1. “Ona – ulug‘ zot” matnini o‘qing va munosabatingizni bildiring.
2. Berilgan so‘zlar yordamida so‘z birikmalari tuzing.
Javon, stol, stul, divan, gilam, taom, non, ovqat, jigarrang, katta, qizil, yumshoq, mazali, issiq, shirin.
3. Qanday xalq amaliy san’at turlarini bilasiz?

6-BILET

1. “Abdurauf Fitrat” matnini o‘qing va so‘zlab bering bering.
2. Berilgan gaplarga mos savollar toping va gaplarni aytib bering.
- _____
Maktabimizda shaxmat, basketbol, voleybol, futbol to‘garaklari bor.
- _____
Sport sog‘lom va baquvvat bo‘lishga yordam beradi.
3. Do‘stingiz bormi? Do‘stingizning ijobiy va salbiy fazilatlari haqida aytib bering?

7-BILET

1. “Me’moriy obidalar” matnini o‘qing, mazmunini so‘zlab bering
2. Gaplarning ajratilgan bo‘laklarini misollar bilan tushuntiring
3. Hozirgi texnologik rivojlanish haqida fikrlaringiz.

8-BILET

1. “Orzular qanotida” matnini o‘qing, matn yuzasidan savollarga javob bering.
2. Nuqtalar o‘rniga mazmuniga mos kirish so‘zlarni qo‘ying, men uni ertaga ko‘raman., futbol jamoamiz musobaqada yutqazib qo‘ydi.
3. Karantin davridagi onlayn –maktab haqidagi fikringizni bildiring

9-BILET

1. “Yoshlikdagi orzular” matnini o‘qing va o‘z munosabatingizni bildiring.
2. Berilgan so‘zlarni to‘g‘ri tartibda joylashtirib, maqollar hosil qiling va ularni ona tilingizga tarjima qiling. Ishni, qo‘yma, bugungi, ertaga. O‘lchab, bir, kes, yetti. Savol, shirin, kutma, achchiq, berib, javob.
3. Alisher Navoiy haqida qanday ma’lumotlarga egasiz? U haqida qisqacha ma’lumot bering.

10-BILET

1. “Tillashayx jome masjidi” matnini o‘qing va siz ham boshqa bir tarixiy joy haqida fikr bildiring.
2. Baxillik, saxovat, ruhlanmoq, musavvir, tengdosh — so‘zlarining tarjimasini toping va ular ishtirokida gap tuzing.
3. Bugungi kunda tabiatni asrash uchun siz nima qilyapsiz?

11-BILET

1. “Suv hayot demakdir” matnini o‘qing va suv haqidagi ma’lumotlaringizni bayon qiling.
2. Shaxsi ma’lum gaplarga misollar keltiring.
3. Sevimli asar qahramoningiz haqida so‘zlang.

12-BILET

1. “Sharafli burch” rivoyatini o‘qing va o‘z munosabatingizni bildiring.
2. Izohlovchi haqida tushuncha bering. Misollar bilan tushuntiring.
3. Transportda yurish qoidalari deganda nimani tushunasiz?

13-BILET

1. “Muqaddas ayol” matnini o‘qing. Matndan faylasufning ayolga bergan tavsifini toping va izohlang.
2. Qavs ichiga har bir gap bo‘lagining so‘roqlarini qo‘yib chiqing.
Qishda(.....) hamma yoq (.....) oppoq (.....) qorga (.....) burkanadi.
3. Navro‘z qanday bayram? Bu bayramning yurtimiz tarixida tutgan o‘rni haqida nimalarni bilasiz?

14-BILET

1. “Yoqub Ahmedov” matnini o‘qing va savollar tuzing
2. Ot-kesimlar qaysi so‘z turkumlari bilan hosil bo‘ladi. Misollar bilan tushuntiring
3. Zilzila sodir bo‘lganda qanday chora ko‘rish kerak? Bunday vaziyatda siz nima qilgan bo‘lardingiz?

15-BILET

1. “Barkamol avlod – kelajak poydevori” matnini o‘qing, matn yuzasidan savollarga javob bering.
2. So‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, maqollar hosil qiling.
Ko‘p, so‘rama, bilgandan, so‘ra, ko‘p, yurgandan. O‘rgan, ishla, bilmasang, bilsang. Shoshilma, bajarishga, berishga, va‘dani, shoshil, va‘da
3. Xalqimizga xos bo‘lgan mehmondo‘stlik fazilatlarini aytib bering?

16-BILET

1. “Yaxshilik yerda qolmas” matnini o‘qing va munosabatingizni bildiring.
2. Uyushiq bo‘laklarning qo‘llanilishi va ularning imlosi haqida ma‘lumotlarni misollar bilan tushuntiring
3. Quyidagi hikmatlarni tushuntirib bering.
Aql- yoshdan, odob boshdan. Yoshlik bahori tez o‘tar bilgin, Keksalar so‘zlarin quloqqa ilgin.

17-BILET

1. “Is‘hoqxon To‘ra Ibrat ” matnini o‘qing va matnini ochib beruvchi savollar tuzing.
2. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlar qo‘ying va gaplarni ona tilingizga tarjima qiling.
Xiva Xorazmning noyob qadimiy shahridir. Madrasaga o‘n qirrali Shaklidagi naqsh tushirilgan.
3. Muslim Yo‘ldoshevning “Bir dam o‘tir, onajonim” she‘rini o‘qing va mazmunini tushuntirib bering.

18-BILET

1. “Vatanimiz himoyachilari” matnini o‘qing va matn mazmunini ochuvchi savollar tuzing.
2. Shaxsi umumlashgan gaplarga misollar keltiring.
3. Abdurahmon Akbarning “Tabiat, sen onamiz” she‘rida qanday g‘oya ilgari surilgan?

19-BILET

1. “Doim hushyor” matnini o‘qing va munosabatingizni bildiring.
2. Nuqtalar o‘rniga kerakli qo‘shimchalarni qo‘ying va gaplarni ifodali qilib o‘qing.
*Bilimli... kuchi ming... yetar, bilimsiz... kuchi bir... yetar.
Yaxshi... bog‘ qolar, yomon... dog‘.*
3. Orzu nima? Sizda “Orzular daftari” bormi, bo‘lganda unga nimalarni yozar edingiz?

20-BILET

1. “Odobli bo‘ling” matnini o‘qing va savollar tuzing.
2. Berilgan maqollardagi vositali va vositasiz to‘ldiruvchilarni toping.
Oltin o‘tda bilinadi, odam mehnatda.

Arslon izidan qaytmas, yigit so'zidan. Birni kessang, o'nni ek.

3. Ota-ona oldidagi burchingiz haqida so'zlab bering.

21-BILET

1. "O'zbekiston askari" she'ridan foydalanib, siz ham kelajakdagi harbiy faoliyatingiz haqida fikr bildiring.

2. "Bu yurt barchamizniki" matnini o'qing va mazmunini ochib beradigan misol bilan izohlang.

3. O'rin holi qanday so'roqlarga javob bo'ladi? O'rin holi ishtirokida gap tuzing.

22-BILET

1. "Yaxshilik yerda qolmas" matnini o'qing va mazmunini ochib beradigan savollar tuzing.

2. Aniqllovchilar qanday so'roqlarga javob bo'ladi? Misollar orqali tushuntiring.

3. "Oltin olma duo ol, duo oltin emasmi?" maqoli haqida nimalarni aytib bera olasiz.

23-BILET

1. "Ilm va uning xosiyatlari" matnini o'qing va o'z munosabatingizni bildiring.

2. Aniqllovchini turlarini misollar bilan tushuntiring.

3. Bilim haqida maqollar ayting va ularning mazmunini izohlab bering.

24-BILET

1. "Inson yaxshilik uchun yaratilgan" matnini o'qing va mazmunini ochib beradigan savollar tuzing.

2. Berilgan gapda harakatning bajaruvchisini toping.

Salim yomon baholarga maktabni bitirdi.

Bobur yozgan asarlar butun dunyoga mashhur.

3. Nima sababdan Vatanni onaga tenglashtiramiz? Fikringizni bildiring

25-BILET

1. "Burch" matnini o'qing, mazmunini so'zlab bering va mazmunini ochib beradigan savollar tuzing.

2. Berilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling va hollarni toping.

Bizning oilamiz Toshkentda yashaydi.

Oilada osoyishtalik, hayotda farovonlik, dunyoda tinchlik bo'lsin.

3. N. Hasanovning "O'zbekiston askari" she'ridan olgan tushunchalaringizni ayting.

26-BILET

1. "Maftunkor bo'yoqlar" matnini o'qing va mazmunini so'zlang.

2. Gaplardagi ot-kesimlarni aniqlang.

Burchimiz- a'lo o'qish. Yugurish sportning bir turidir.

Suv – hayot manbai. O'zbekiston poytaxti Toshkent.

3. Tabiatni asrash qanchalik muhim? Bugungi kunda tabiatimizni asrash uchun qanday ishlar qilinmoqda.

27-BILET

1. “Vatanni his etish” she’rini ifodali o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
2. Kiritma gap haqida ma’lumot bering. Misollar bilan tushuntirib bering.
3. “Mening tengdoshlarim” deganda kimlar ko‘z o‘ngingizga keladi va darslikda xuddi shu nomli she’rda nima deyilgan?

28-BILET

1. “O‘zbekiston milliy sporti dunyoni zabt etmoqda” matnini o‘qing, matndagi milliy sport o‘yinlaridan biri haqida so‘zlab bering.
2. Berilgan gapni o‘z ona tilingizga tarjima qiling.
Men tarixiy asarlarni o‘qishni yoqtiraman.
3. Mardlik deganda nimani tushunasiz? Qanday insonni mard deb ataysiz?

29-BILET

1. “Odob ziynati” matnini o‘qing, matn yuzasidan savollarga javob bering.
2. Aniqlovchi qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi. Misollar bilan tushuntirib bering
3. Maqol va hikmatlarni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
Yaxshilik qilsang, yashir. Yaxshilik ko‘rsang, oshir.

30-BILET

1. “Me’moriy obidalar” matnini o‘qing, matn yuzasidan savollar tuzing.
2. Berilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling.
O‘zbekistonning qadimiy yodgorliklarini ko‘rgani juda ko‘p sayyohlar kelishadi. Samarqanddagi ko‘p me’moriy obidalar Mirzo Ulug‘bek tomonidan qurilgan.
3. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish qoidalari haqida gapiring.